

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI
JAHON ADABIYOTI VA QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI

**“SHARQ MUMTOZ POETIKASI
MUAMMOLARI:
NAVOIY VA RUMIY”**

*mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari
2025-yil, 22-aprel*

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
ALISHER NAVAI TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE
DEPARTMENT OF WORLD LITERATURE AND
COMPARATIVE LITERATURE

*Proceedings of the international
scientific-theoretical conference titled*

**“ISSUES IN ORIENTAL CLASSICAL
POETICS: NAVO'I AND RUMI”**

April 22, 2025

Toshkent
“Nurafshon business”
2025

65.	<i>Maftuna NORQULOVA.</i> "HALI HAYOT BOR..." QISSASIDA QAHRAMON KONSEPSIYASI	552
66.	<i>Dilnavoz BOYZOQOVA.</i> "YUSUF VA ZULAYHO" QISSASIDA OBRAZ TALQINI	560
67.	<i>Махфузахон ХОМИДОВА.</i> "БАДОЙИЪ УЛ-БИДОЯ"ДА ИНТЕРТЕКСТУАЛИК	568

III SHO'BA NAVOIY VA RUMIY IJODIDA MA'RIFAT VA MILLIYAT MASALALARI

68.	<i>Nafas SHODMONOV.</i> "LAYLI VA MAJNUN" DOSTONI SYUJETI VA G'OYASINI SHAKLLANTIRGAN BA'ZI OMILLAR	578
69.	<i>DR. KEMAL YAVUZ ATAMAN.</i> OSMANLI DEVLETİ'NİN MANEVİ VE HAKİKİ MÜESSİSİ MEVLÂNÂ CELÂLEDDÎN-İ RÛMÎ	584
70.	<i>G'ayrat MURODOV, Shahlo SA'DULLAYEVA.</i> MURSHID VA MURID MUNOSABATI	592
71.	<i>Нусратулло ЖУМАХЎЖА.</i> ЖАЛОЛИДДИН РУМИЙ "МАСНАВИЙИ МАЪНАВИЙ" АСАРИНИНГ КИРИШ ҚИСМИ МАЗМУНИГА ЧИЗГИЛАР	602
72.	<i>نویسنده: پروفسور دکتر فضل الرحمن فقیہی ہروی نقش امیر علی شیر نوابی در تمدن آفرینی دورہ تیموریان ہرات</i>	607
73.	<i>Darmonoy O'RAYEVA.</i> RUMIY VA HOZIRGI O'ZBEK SHOIRLARI IJODIDA DUNYO TA'RIFI	619
74.	<i>Ulkar BAKHSHIYEVA.</i> THE ARTISTIC-AETHETIC FEATURES OF THE MYTHOLOGICAL APPROACH IN NIZAMI GANJAVI'S POEM "ISKANDARNAMA" (IN THE CONTEXT OF LEGENDS RELATED TO KHIDR)	624
75.	<i>بشیر احمد قرداش</i> هصالخ	634
76.	<i>Odiljon AVAZNAZAROV.</i> NAVOIY DOSTONLARIDA "QADAM" METAFORASI	642

“HALI HAYOT BOR...” QISSASIDA QAHRAMON KONSEPSIYASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada adib Ahmad A'zam qalamiga mansub “Hali hayot bor...” qissasida qahramon konsepsiyasi masalasi atroflicha o'rganiladi. Shuningdek, qissaning bosh qahramoni A'lamning o'zi mansub bo'lmagan jamiyatda harakat qilishi va alal-oqibat u muhit odami emasligini anglab tark etishi xususida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: qissa janri, qissada qahramon konsepsiyasi, obraz, syujet, detal, g'oya.

Abstract: This article examines the concept of the hero in the story “There is still life...” by the writer Ahmad A'zam. It also discusses the main character of the story, A'lam, who acts in a society to which he does not belong and eventually leaves, realizing that he is not a person of the environment.

Keywords: story genre, concept of the hero in the story, image, plot, detail, idea.

Biror badiiy asar haqida gap ketganda, avvalo, kitobxon ko'z oldida asar qahramoni gavdalanadi. Badiiy asarni harakatlantiruvchi eng katta kuch ham adabiy qahramondir. Adabiy qahramon esa ijodkor dunyoqarashining mahsuli. Bu haqida adabiyotshunos K.Hamrayev o'zining “Hikoya kompozitsiyasi” nomli tadqiqotida shunday deydi: “Badiiy obrazni ijodkorning badiiy asardagi ko'lankasi, ham deyish mumkin. Shu ma'noda har bir obraz ortida yozuvchining dardi, o'y-mushohadalari va badiiy niyati yotadi¹”. Epik turning barcha janrlarida ijod qilgan, adabiyotshunoslar tomonidan o'zi bilan o'zi gaplashayotgan odam obrazi deya e'tirof etiladigan Ahmad A'zam asarlarining har bir qahramonida muallifning badiiy niyati yashirin. Ahmad A'zam adabiy jarayonda faol ishtirokchi, jamiyatda kechayotgan hodisalarga befarq bo'lmagan ijodkor. Nafaqat badiiy asarlari, balki til haqidagi ilmiy va publitsistik asarlari o'zbek adabiyotining xazinasidan o'rin olgan.

Adabiyotshunos D.Quronov “Badiiy obraz borliqning san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlanib, hissiy

1 Hamrayev K. Hikoya kompozitsiyasi. – T.: Nurafshon bussines, 2020. – B.55.

idrok etish mumkin bo'lgan shaklda ifodalangan aksidir,¹” deydi. Darhaqiqat, muallif asar qahramonini shuurida pishitib, u orqali kitobxonga o'zining ijodiy maqsadini yetkazadi.

Ahmad A'zam ijodida, ayniqsa, qissa janrining o'rni beqiyos. Qissa janri hikoyadan katta, romandan kichik bo'lganligi uchun epik tur markazida turadi. Unda qahramon taqdir yo'li asosiy planga chiqariladi. Qissadagi barcha epizodlar bosh qahramonga bevosita bog'lanadi. Adibning “Hali hayot bor...”, “Bu kunning davomi”, “Quroq”, “Asqartog' tomonlarda” kabi qissalari o'zbek kitobxoniga tanish. Bu qissalardagi bosh qahramonlarning umumiy jihatlari bor. Adibning barcha qahramonlari ziyoli qatlamda harakatlanadi. Adib bu muhitdagi xunrezliklar, poraxo'rlik, ikkiyuzlamachilik kabi illatlar haqida fikr yuritar ekan, qissa bosh qahramonlari xulq-atvorini ularning muhitga bo'lgan munosabati, axloqiy qarashlarida ochib beradi.

“Quroq” qissasining bosh qahramoni oltmish yoshdan oshgan (adibning o'zi) ziyoli odam. Qissada adib bolaligi xotiralari achchiq kinoyaviy uslubda hikoya qilinadi. Inson uni o'sib-ulg'aytirgan, tarbiya qilgan o'tmishidan, o'zligidan ayrila olmaydi. Agar inson o'tmishdan ayrilsa, uni kitoblardan izlay boshlaydi. Kitoblardan izlangan o'tmish orqali o'zlikka erishib bo'lmaydi. “Quroq” qissasi orqali o'z qiyofasini izlayotgan, yashashdan maqsadini, hayot mohiyatini anglashga harakat qilayotgan ziyoli odam obrazini ko'rishimiz mumkin.

“Bu kunning davomi” qissasi qahramoni psixolog yigit. U yillar davomida izlagan qizini uchratgan va uning qo'ng'irog'ini kutib telefonga betoqat tikiladi. Telefon bilan bog'liq boshqa xotiralarni eslaydi. U qiz telefon qiladimi, qilmaydimi, lekin u baribir kutaveradi. Birgina qo'ng'iroq uning butun umrlik taqdirini hal qiladigandek, go'yo. Telefon detal-obrazi qahramon ruhiyatini, psixologik holatini ochish uchun xizmat qiladi.

“Asqartog' tomonlarda” qissasi bosh qahramoni Mahdi Ashrapov ham universitetda dars beradigan ziyoli odam. U o'zi ishlayotgan muhitdan qoniqmaydi, ilm dargohida poraxo'rlik, korrupsiya, soxta kadr tayyorlash avj olgan. Qahramon bu biqiq muhitda hallolik, poklik va tozalik ramzi sifatida qissa markazida turadi.

1 Qur'onov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2018. – B.90.

“Hali hayot bor...” qissasining bosh qahramoni A’lam jurnalist. A’lam o’z so’ziga ega odam. Har qanday davrada fikrini aniq ayta oladi. Uning bu fe’li atrofdagilar tomonidan tanqid qilinadi. U o’zi faoliyat yuritadigan maskandan norozi. Qissa so’nggida qahramon bu muhitdan chiqib ketadi.

Qissada nashriyot xodimlarining o’z xizmat vazifalariga loqaydlik bilan qarashi haqida so’z yuritiladi. Ancha vaqtlardan beri nashriyotda ish bir maromda olib borilayotgan edi. Birgina qo’ng’iroq bu turg’unlikni buzib yuboradi. Voqealar rivoji mana shu qo’ng’iroqdan keyin shiddatli tus oladi. Markazkomdan Gulimoh Yulduzovna qo’ng’iroq qilib shu nashriyotda faoliyat yuritayotgan xodim Kamolov haqida so’raydi. “Kamolov A’lam hali ham sizda ishlayaptimi?”¹, deb berilgan savolga direktor “Ha” deb javob bergandan so’ng Gulimoh Yulduzovnaning boshqa telefoniga qo’ng’iroq bo’lib, keyin gaplashamiz, deb go’shakni qo’yib qo’yadi. Yuqoridan bo’lgan qo’ng’iroq, ism-familiyasi bilan so’ralgan xodim, hali ham sizda ishlayaptimi, degan savol direktorni gangitib qo’yadi. Muallif direktor Abduzafar Abdusafarovich obrazi vositasida Gulimoh Yulduzovnani portretini yaratar ekan, uni ko’rganda direktorning ruhi tushib ketishini, o’ng’aysizlanishini, gavgasi shalvirab qolgandek bo’lishini ta’kidlaydi. Direktor Gulimoh Yulduzovnaning qomatini sambittolga o’xshatadi, qoshi doim chimirilib turishi, kiyimni ham did bilan tanlab kiyishini va yaxshiyamki shunday ayolga uylanib qolmaganiga shukrlar qiladi. “Bir umr kibr-u nazokat bilan yashab bo’ladimi, axir, qo’limni noto’g’ri ushlading, deb bir turilsa! Siqilib o’lib ketasan-u. Rafiqa kishi ming chiroyli bo’lmasin, muzeyga qo’ymaysan, uni ham quchoqlash kerak, axir, ey, yashash kerak u bilan!”²

Birgina xodimning ish joyida yo’qligi, uni so’roqlab qilingan qo’ng’iroq hammaning tinchini buzadi, xodimlar g’imirlab qolishadi. Direktor ham kadrlar bo’limi boshlig’idan ishda nechta xodim borligini, kim kechikib keldi-yu, kim umuman kelmadi, deb so’roq qilganda tayinli javob ololmaydi. Aynan shu paytning o’zida buni tekshirib chiqishni talab qiladi.

1 Ahmad A. Hali hayot bor...: Qissalar, novellalar, hikoyalar. – T.: O’zbekiston, 2011. – B.9.

2 Ahmad A. Hali hayot bor...: Qissalar, novellalar, hikoyalar. – T.: O’zbekiston, 2011. – B.10.

Asarda A'lam obraziga qarama-qarshi qo'yiladigan obraz bu Turdiali. Ikkalasining yoshi teng. Bitta xonada ishlaydi, birga tushlik qiladi, ammo qarashlari turlicha. Turdiali direktor ishonchiga kirish uchun doim yaltoqlanadi. "Ular boshqa, boshqa davra. Tushunmayman ularni, tushungim ham kelmaydi. Men ustozlarning yo'lidan boraman. Ha, men, mana, sizning etagingizdan ushlaganman, Ursangiz ham, so'ksangiz ham qo'yvormayman"¹. Hatto bir xonada ishlaydigan do'sti A'lam bilan orasida hech qanday do'stlik rishtalari yo'qligini aytib, u haqida nomaqbul gaplarni aytadi. "Bunga nima qilib moshin tegib qoldi o'zi? Endi Markazkomda hamma moshinlar shunaqa TNO "Volga"da, a? Bo'lmasa, o'zi invalidlarning pat-patichalik ham ish qilgani yo'q"². Turdiali doim A'lamga hasad ko'zi bilan qaragan. U jurnalistlar seminariga yordam berish uchun borib, lekin hech qanday ish qilmay Volga minib yurganiga, nashriyotda birgina A'lam direktor bilan ochiq gaplashishiga kuyadi. Turdiali vaziyatga qarab tuslanadigan obraz.

Direktor Abduzafar Abdusafarovich nashriyotda tartib-intizomni yaxshi ko'radigan odam. Uning kuni dolonda xodimlarni nazorat qilish bilan o'tadi. A'lam direktorga rahmi kelib: "O'zi yaratgan tartiblardan o'zi siqiladi. Bo'lmasa kap katta, rahbar odamga kun bo'yi dolonda pishirib qo'yibdimi?"³, deydi. Direktor ancha yillardan beri bu lavozimda ishlaydi, birgina xodim tufayli o'z o'rnini yo'qotishni xohlamaydi. Gulimoh Yulduzovnaning qo'ng'irog'i direktorning asl yuzini ochib beradi. Tashqaridan qaraganda u ishxonada tartib-intizomni saqlay olgan. Lekin ichkarida ishiga mas'uliyatsiz, ikkiyuzlamachi va axloqsiz rahbar. Direktorning kadrlar bo'limida ishlaydigan Surayyo bilan ishqiy munosabati bor. "Hech gap yo'q, jonim! Yosh kadrlar – bu kelajagimiz. Shtatni ham yosh kadrlar bilan to'ldirib borishimiz kerak. A'lam yana, aytyapsan-ku, talant ekan. Talantga o'zingning ham ko'ngling sust ketyapti. Qayerda turishini ham bilasan. Lekin bu yoqqa kirganda burningni

1 Ahmad A. Hali hayot bor...: Qissalar, novellalar, hikoyalar. – T.: O'zbekiston, 2011. – B.19.

2 Ahmad A. Hali hayot bor...: Qissalar, novellalar, hikoyalar. – T.: O'zbekiston, 2011. – B.20.

3 Ahmad A. Hali hayot bor...: Qissalar, novellalar, hikoyalar. – T.: O'zbekiston, 2011. – B.9.

tortasan...”¹. Direktor fitratida shunday noqislik bor ekan, albatta qo‘l ostidagi xodimlarida ham shunday kamchilik bo‘lishi tabiiy.

Qissada bosh muharrir yordamchisi Umarov obrazi savodsiz xodim sifatida ko‘rinadi. Qo‘l ostida faoliyat yuritadigan jurnalist Kamolov yuqoridan so‘ralgandan so‘ng, nima sababdan so‘rattirilganligini surishtirmay noto‘g‘ri ish qilgan deb o‘ylab, ishdan bo‘shatish uchun hujjat tayyorlaydi. Qissa davomida Umarovning savodsiz ekanligi yaqqol ko‘rinadi. “Heh-he, hamma gap shu o‘xshatmasida-da! – dedi Umarov o‘zini orqaga tashlab. – Go‘yo Navvoyi, Lutpi tilidan o‘xshatma qilib, tagiga bugungi davrdan norozilikni tiqib yuborishadi. Bunaqalar mendan qutulib bo‘pti! O‘qib beraymi o‘shanaqa... topgan joylarimni?”². “Navoiyni “Navvoyi”, Lutfiyni “Lutpi” deyishidanoq nashriyotda shunday lavozimda ishlaydigan odamning o‘z o‘rniga noloyiq ekanligi oydinlashadi.

Kadrlar bo‘limi boshlig‘i Surayyo obrazi ko‘hlik ayol. Direktor bilan suhbatidan ma‘lum bo‘ladiki, ular o‘rtasida devor yo‘q. Bu ayol ham shu muhitdagilar singari ikkiyuzlamachi. Bitta davrada o‘tiradigan kasaba uyushmasi raisasi Sojidani orqasidan har xil gaplarni aytadi. Asarda Sojida obrazi ham savodsiz obraz, asabiy ayol sifatida ko‘rinadi. Uning xulq-atvori asar davomida, ayniqsa, A‘lam bilan bo‘lgan suhbatda ochiladi.

Nashriyot atrofida bochkalarda bo‘yoqlar saqlanadi va uning hidi hamma joyda anqib turadi. Bu yerdagilarning hammasi bu hidga ko‘nikkan. Faqat A‘lamgina bu hidga ko‘nikolmagan. Nashriyot xodimlarining hayot tarzi bir maromda, hatto ular buning o‘zgarishini xohlamaydi. Shunday yashashga o‘rganib bo‘lishgan. A‘lam bu jamiyat odami emas. O‘zining fikrlari, orzulari, yashash tarzi bor.

Nashriyotda bo‘yoq hidi doimiy anqib turadi, hamma bu hidni bilsa-da, bilmaslikka oladi. Shu hid sababli Surayyoning sog‘ligida muammo bor. Qancha davolansa ham, yana qaytalanadi. Kabineti derazasining hamma tirqishlariga paxta tiqsa ham, bu hid qayoqdandir sizib kiraveradi. Bo‘yoq detalida ham muallifning

1 Ahmad A. Hali hayot bor...: Qissalar, novellalar, hikoyalar. – T.: O‘zbekiston, 2011. – B.14.

2 Ahmad A. Hali hayot bor...: Qissalar, novellalar, hikoyalar. – T.: O‘zbekiston, 2011. – B.12.

badiiy niyati yotadi. Bu detal orqali adib muhitning og'irligini yoki buzilganligini ko'rsatib beradi. Nashriyotdagi muhit eskirgan, xodimlari esa beparvo. A'lamdan boshqa hech kim bu bo'yoq hididan qochmaydi. "– Nima sassiq? Bo'yoq-da, ha, isi bor. Nima qipti? Sassiq emish! Bilsangiz shu sassiq boqadi hammamizni. Shunga bosilgan kitoblaringga olasizlar jaraq-jaraq pullarni. Sassig'-a? Mehnatning isi bu!– Topgan gapidan Sojidaning o'zi jo'shdi. – Ha, ishlagandan keyin odamning ham isi bo'ladi. Nimaga burningizni jiyirasiz? Men yaxshi ko'raman, ish-da bu. Ishning isi bo'ladi, kiri bo'ladi. Ishlash kerak, ukam. Kim-kimlarni o'rtaga solib, yonida yurganlarni oyoqosti qilib, valakisalang yurguncha"¹. Bu detal xodimlar ichki dunyosi ham kirlanganligini ko'rsatib beradi, ya'ni obrazga yoki voqeaga salbiy munosabatni kuchaytiradi.

Shuningdek, qissada qora ko'mir detalini ham uchratamiz. Qissada ko'mir muallif niyatiga qarab obraz, voqea yoki muhitga chuqur ma'no yuklaydi. "Ko'mirning qorasi bir pasda tarqaladi-ya"², xuddi Markazkomdan Gulimoh Yulduzovnaning Kamolovni so'raganligi haqidagi xabar butun nashriyotga tarqalgandek. "Tushganiga qancha bo'lsa, biron soat bo'lgandir-da, shamol yo yengilroq shabada yo'q, gardi o'tgan-qaytganning egniga ilashadimi, yo oyog'idagi kalishining tishiga kirib qoladimi, mahallaning u boshigacha boribdi. O'ylasang yuragingni vahm bosadi: xuddi joni bordek, tushgan joyidan hamma yoqni qoraga bulg'ab, o'zidan-o'zi, sekin tarqalib-taralib ketaveradi... Xuddi qorong'u elanib-sizib cho'kayotgandek. Yana, yomon gapdek..."³. Qissadan keltirilgan matndan anglashiladiki, ko'mir changi qorong'ulik, odamlar orasidagi mish-mishlar bilan uyg'unlashtiriladi. Bu oddiiy chang emas – odamlarning ruhiy va ijtimoiy hayotini iflos qiluvchi hodisa sifatida tasvirlanadi.

Qissada turg'un vaziyatni buzgan obraz bu – Gulimoh Yulduzovna. Gulimoh Yulduzovnaning qo'ng'irog'i nafaqat direktorni, balki nashriyot xodimlarini ham tinchini buzadi. Rahbar notinch

1 Ahmad A. Hali hayot bor...: Qissalar, novellalar, hikoyalar. – T.: O'zbekiston, 2011. – B. 60.

2 Ahmad A. Hali hayot bor...: Qissalar, novellalar, hikoyalar. – T.: O'zbekiston, 2011. – B. 3.

3 Ahmad A. Hali hayot bor...: Qissalar, novellalar, hikoyalar. – T.: O'zbekiston, 2011. – B. 3.

bo'lgandan so'ng, jamoaning ham paytavasiga qurt tushadi. Qo'ng'iroqdan keyingi barcha voqealar bevosita Gulimoh Yulduzovnaga borib bog'lanadi. Asarda bu obraz qissadagi barcha obrazlarni harakatga keltiruvchi kuch sifatida ko'rinadi. A'lamning haqiqat yo'lidan borishi, o'z fikriga ega jurnalist ekanligi uchun Gulimoh Yulduzovna uni taqdirlamoqchi bo'ladi. A'lam Markazkomda ishlaydigan bu ayolga fikrlarini tortinmay bemalol ayta oladi. Jurnalistlar seminarida faol ishtirok etganligi uchun Gulimoh Yulduzovna A'lamni "Литературная газета"ga yillik obuna bilan taqdirlamoqchi bo'lganda, u bu gazeta kiosklarda to'lib yotganligini, agar iloji bo'lsa unga "Иностранная литература"ga obuna qilib berishini so'raydi. Gulimoh Yulduzovnadek ayol oddiy xodim Kamolovni so'rattirgani butun nashriyotda shov-shuvga aylanadi.

"Ishdagi odamlar uchun erkin bir joy bo'lishi kerak, – deydi A'lam"¹. Ko'chaga, mahallaga istagan odam chiqadi, xohlagancha aylanadi. Hech kim hech nima demaydi, chunki hammaniki-da. A'lam bu yerda esa direktor butun boshli dolonni o'ziniki qilib olganini o'ylab siqiladi. "Biz ham odam, balki bizning ham dolonda qo'limizni belga qo'ymasak ham, tahrirdan toliqib qotgan barmoqlarimizni qirsillatib, xushtak chalmasak ham, ming'irlab hirgoyi qilib yurgimiz kelar", deb ayta oladigan til yo'q². Dolonda direktor yurgan vaqtida hech kim u yerga chiqa olmaydi, ichkarida hamma bir-biriga "Yuribdilarmi?", "Yo'q, ko'rinmayaptilar. Chiqsangiz bo'ladi", "– E-e, Xudo asrasin. Chiqib qolishlari mumkin", "Och qornim, tinch qulog'im", "Ey, Xudoyim. Xushtagini kabinetda chalsa bo'lmaydimi-a?", "Shuni ayting, oyog'ini chigilini ham yozsin kabinetida. Hatto koptok tepsa ham bo'ladi-ku", – deb hasratlashib o'tirishadi.

Xulosa qilib aytganda, Ahmad A'zamning "Hali hayot bor..." qissasida davlat idorasidagi kamchiliklar, nashriyot muhitning nobop ekanligi ko'rinadi. Inson erki bo'g'ilgan jamiyatda A'lamga o'xshagan haqiqat uchun kurashuvchan kimsalarning iste'dodi so'nib

1 Ahmad A. Hali hayot bor...: Qissalar, novellalar, hikoyalar. – T.: O'zbekiston, 2011. – B. 57.

2 Ahmad A. Hali hayot bor...: Qissalar, novellalar, hikoyalar. – T.: O'zbekiston, 2011. – B. 58.

boradi. A'lam hamma yoq bo'yoq hididan sasib ketgan, men endi bu havodan nafas olmayman deb, ariza yozib, narsalarni yig'ishtirib ketib qoladi. Chunki u bu jamiyat odami emas. A'lam erk va ozodlik uchun kurashgan obraz hisoblanadi. "Umuman, qahramonni hamisha harakatda, o'zgarishda tasvirlash, inson shaxsiyatining tinimsiz dinamikasini uning o'y-kechinmalari vositasida ko'rsatish Ahmad A'zam ijodiga xos asosiy xususiyatlardan biridir"¹.

Adabiyotlar

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Akademnashr, 2018. – B. 480.
2. Hamrayev K. Hikoya kompozitsiyasi. – T.: Nurafshon bussines, 2020. – B. 140.
3. Ahmad A. Hali hayot bor...: Qissalar, novellalar, hikoyalar. – T.: O'zbekiston, 2011. – B. 320.
4. Юлдошев. Суз ёлкини / Рухият жилолари (Ахмад Аъзам). – Т.: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. – Б. 504.

1 Юлдошев. Суз ёлкини / Рухият жилолари (Ахмад Аъзам). Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий кйи, 2018. – Б. 356.